

*Хорижий Шарқ мамлакатлари
тарихий жараёнлари ва уларни
ўрганишнинг долзарб муаммолари*

Илмий-амалий конференция материаллари



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК**

**ХОРИЖИЙ ШАРҚ МАМЛАКАТЛАРИ
ТАРИХИЙ ЖАРАЁНЛАРИ ВА УЛАРНИ
ЎРГАНИШНИНГ ДОЛЗАРБ
МУАММОЛАРИ**

*Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция
материаллари тўплами*

Тошкент - 2022

“Шарқ мамлакатларидаги тарихий жараёнлар ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари” мавзусида вазирлик микёсида илмий-амалий конференция. – Тошкент. 2022. № 8. 370 б.

Таҳрир ҳайъати:

Т.ф.д., проф. Н.Э.Каримова
Т.ф.д., проф. С.Б.Шодманова
С.ф.д., доц. Н.А.Абдуллаев
Т.ф.д., доц. З.Дж.Арипова
Т.ф.н., доц. А.Х.Худойбердиев
Т.ф.н. К.С.Азимов
Т.ф.н. С.М.Турсунова
Т.ф.н. У.А.Абдуллаев
Т.ф.н. Ш.И.Икромов

Такризчилар:

т.ф.д., проф. А.Хасанов
т.ф.н., доц. Ю.Исмоилова

Тўплам Тошкент давлат шарқшунослик университети Шарқ цивилизацияси ва тарих факультети Кенгаши томонидан нашрга тавсия этилган (22.06.2022 й. № 11)

HINDISTONDA BUYUK BRITANIYA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING DAVRIY NASHRLARDA YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Hindistondagi Britaniya mustamlakachilik siyosatining Yevropa va Rossiya matbuotidagi yoritilishini tahlil qiladi. “The Times” kabi Yevropa nashrlarida Britaniya ma'muriyatining adolatsiz siyosati va Hind jamiyatidagi norozilik holatlari keng muhokama qilingan. Rus matbuotida esa harbiy ekspeditsiyalar, infratuzilmaviy loyihalar va geosiyosiy raqobatga oid materiallar asosida Hindistonni nazorat qilish strategiyalari tahlil etilgan. Ayniqsa, “Buyuk o‘yin” kontekstida Rossiya va Britaniya o‘rtasidagi geosiyosiy ziddiyatlar, har ikki imperiyaning mahalliy xalqlarni o‘z ta’sir doirasiga olish harakatlari chuqur tahlil qilingan. Maqola, shuningdek, mustamlakachilikka qarshi xalq qarshiligi, Hind milliy harakati va Yevropa matbuotidagi tanqidiy yondashuvlar orqali xalqaro munosabatlardagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Tahlil qilingan manbalar Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy voqelikni geosiyosiy, tarixiy va gumanistik nuqtai nazardan ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Britaniya mustamlakachilik siyosati, Hindiston, Rus matbuoti, Yevropa nashrlari, “Buyuk o‘yin”, Geosiyosiy raqobat, Harbiy ekspeditsiyalar, Hind milliy harakati

Yevropa matbuotidagi tahlillar Hindistondagi mustamlaka boshqaruvi va unga nisbatan xalq munosabatini keng yoritgan. “The Times” gazetasi tahlilida Britaniya ma'muriyatining siyosati jamiyatda tobora kuchayib borayotgan norozilik, ayniqsa turli shtatlardagi nomuvozanlik va ma'muriy noadolatlik bilan bog‘langani ta’kidlanadi.¹ Jurnalistik kuzatuvlarda ishsizlik, soliq yuki va diniy ziddiyatlar xavfli darajaga yetayotgani qayd etiladi. Shu bilan birga, “Ranglilar va oqlar” nomli maqolada Yevropa jamiyatining mustamlakachilikka ikkilamchi qarashlari ochib berilgan.² Maqolada Yaponiyaning so‘nggi siyosiy va harbiy muvaffaqiyatlari sabab, Osiyo xalqlariga nisbatan munosabatda o‘ziga xos o‘zgarishlar ko‘zga tashlanayotgani, oq tanlilar va ranglilar o‘rtasidagi mavqe tengsizligi G‘arb matbuotida tanqidiy ko‘rib chiqilayotgani ta’kidlanadi. Bu tahlillar Britaniya siyosatiga nisbatan xalqaro matbuotda shubhali munosabat kuchayganini ko‘rsatadi.

Hindistondagi harbiy va xavfsizlik bilan bog‘liq muammolar haqidagi rus matbuoti manbalari Britaniya mustamlakachilik siyosatining ichki va tashqi xavflarga qarshi qanday choralar ko‘rayotganini yoritib beradi. “Hindistondagi qo‘zg‘olonlarga qarshi kurash” nomli maqolada³, Bengaliya va boshqa hududlarda ko‘tarilgan norozilik va isyonlarga qarshi Britaniya ma'muriyati tomonidan joriy etilgan harbiy choralar haqida so‘z boradi. Maqolada ayniqsa harbiy nazoratning kuchaytirilishi,

¹ Тимес о современном положении Индии // Туркестанские ведомости – 1908. – № 260.; ТС. 495. – С.158.

² Цветные и белые // Слово – 1907. – № 262.; ТС. 444. – С.169-171.

³ Борьба с мятежами в Индии // Россия – 1908. – № 931.; ТС. – 496. – С.181.

fuqarolar faoliyatining cheklanishi va jazolarning qattiqligi orqali vaziyatni barqarorlashtirishga urinish qayd etiladi.

“1895 yil Chitral ekspeditsiyasi paytida harbiy telegraf liniyasining qurilishi” maqolasida esa Britaniya armiyasining Hindiston shimolidagi strategik hududlarda harbiy aloqalarni mustahkamlash uchun qanday infratuzilma loyihalarini amalga oshirgani bayon qilinadi. Chitral ekspeditsiyasi davomida qurilgan telegraf liniyalari nafaqat harbiy, balki siyosiy ta’sir doirasini kengaytirish vositasi sifatida baholanadi.⁴

Shu bilan birga, “Osiyodagi rus va ingliz ta’siri doirasidagi mahalliy qabilalar” maqolasi Britaniya va Rossiya imperiyalari o’rtasidagi geosiyosiy raqobat kontekstida, turli mahalliy qabilalarning ikki tomon ta’siridan qanday foydalanilayotganini tahlil qiladi. Maqolada mahalliy qo‘mondonlarning bir necha taraflama sodiqlik ko‘rsatishi va ular orqali siyosiy bosimlarni amalga oshirish harakatlari yoritilgan.⁵

“Shimoliy Hindistonga ekspeditsiya” maqolasi esa shimoliy hududlarda olib borilgan harbiy tadbirlar va ekspeditsiyalarning asosiy maqsadlari, jumladan strategik nuqtalarni egallash va xavfsizlikni ta’minlash vazifalariga bag‘ishlangan. Maqola Britaniya qo‘shinlarining ichki xavflarga qarshi tashkiliy jihatdan qanchalik tayyorgarlik ko‘rayotganini ko‘rsatadi.⁶

Ushbu to‘rt manba Hindistondagi xavfsizlik vaziyati faqat ichki noroziliklar emas, balki tashqi geosiyosiy kuchlar ta’siri hamda infratuzilmaviy va harbiy mustahkamlash choralari bilan ham bog‘liq ekanini yaqqol namoyon etadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya va Britaniya imperiyalari o’rtasidagi geosiyosiy tortishuv “Buyuk o‘yin” nomini olgan, bu jarayonning muhim yo‘nalishlaridan biri Hindiston orqali Osiyoni nazorat qilish strategiyasi bo‘lgan. Yuqorida tahlil qilingan maqolalar mazkur tortishuvning turli jihatlarini ochib beradi.

M.D.Skobelevning siyosiy vasiyatlariga bag‘ishlangan maqolada⁷ Turkiston mintaqasi orqali Hindistonga yo‘l ochish g‘oyasi Rossiya harbiy-siyosiy doiralarida jiddiy ko‘rib chiqilgani ko‘rsatiladi. Unda Britaniya imperializmiga qarshi turish, markaziy Osiyodagi nufuzni mustahkamlash va bu orqali Hindistonga tahdid sifatida qarash taklif etilgan. Muallif Skobelev orqali Rossiyaning strategik maqsadlarini fosh etadi, ularning markazida Hindistonni geosiyosiy bosim vositasi sifatida ko‘rish mavjud.

1888 yildagi ekspeditsiya haqidagi maqolada Rossiyaning Hindiston shimoliga yo‘l olgan harbiy-tadqiqot harakatlari yoritiladi.⁸ Bu harakatlar Britaniya himoya tizimi, yo‘llar va mahalliy sharoitlarni o‘rganish maqsadini ko‘zlagan. Maqolada bu ekspeditsiya amaliy razvedka sifatida baholanadi, bu esa Rossiya tomonidan harbiy-siyosiy faoliyatning aniq rejalashtirilayotganini ko‘rsatadi. Britaniya tomoni bu harakatlarni xavf sifatida baholab, o‘z navbatida himoya va nazorat choralari kuchaytirgan.

⁴ Сооружение военно-телеграфной линии во время Читральской экспедиции 1895 года. – ТС. 427. – С.16-18.

⁵ Туземные племена на пределах влияния России и Англии в Азии. – ТС. 383. – С.3-18.

⁶ Экспедиция в северную Индию. – ТС. 425. – С.165-169.

⁷ «Туркестан и английская Индия». Посмертные бумаги М. Д. Скобелева. – ТС. 330. – С.205-224.

⁸ Экспедиция в северную Индию. (Русский инвалид. 1888 № 53). – ТС. 425. – С.165-169.

1885 yildagi mahalliy qabilalar haqidagi maqolada Rossiya va Britaniya ta'sir hududlari chegarasidagi mahalliy xalqlar, xususan, mahalliy qabilalarning geosiyosiy ahamiyati ochib beriladi.⁹ Bu qabilalarni o'z ta'siriga olish, ularni harbiy va siyosiy jihatdan safarbar etish har ikki imperiya uchun muhim bo'lgan. Maqolada, shuningdek, bu xalqlar orqali imperiyalar o'rtasidagi ta'sir kurashi qanday shakllangani tahlil qilinadi.

Umuman, ushbu maqolalar "Buyuk Hind yo'li"ni faqat harbiy yo'l sifatida emas, balki siyosiy-strategik va madaniy ta'sir vositasi sifatida ham namoyon etishini ko'rsatadi. Rossiyaning Hindistonga qaratagi siyosatlari juda ehtiyotkor, lekin uzoqni ko'zlagan strategik maqsadlarga yo'naltirilgan edi. Britaniya esa buni o'z mustamlakachilik tizimiga tahdid deb bilib, mintaqadagi har bir harakatni diqqat bilan kuzatib borgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi rus tilidagi mahalliy va markaziy nashrlarda Hindistondagi Britaniya mustamlakachilik siyosati keng yoritilgan bo'lib, bu xabar va tahlillar bir nechta o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Tahlil qilingan maqolalar asosida shuni aniq ta'kidlash mumkinki, mazkur materiallar nafaqat axborot manbai, balki murakkab geosiyosiy jarayonlarni anglashda muhim fikriy-madaniy oyna bo'lib xizmat qilgan.

Birinchiidan, siyosiy beqarorlik va xalq noroziligi haqidagi ma'lumotlar nashrlarda muntazam ravishda berilgan, bunda xalq noroziligi milliy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog'lab izohlangan. Britaniyaning ma'muriy tizimining qattiq markazlashganligi, fuqarolar erkinliklarining cheklanganligi va iqtisodiy tartibdagi adolatsizliklar asosiy sabab sifatida ko'rsatilgan.

Ikkinchiidan, Britaniya ma'muriyati va islohotlar siyosati haqidagi yoritishlarda turlicha yondashuvlar kuzatiladi: bir tarafdin, Britaniya ma'muriyatining samaradorligi, boshqaruvdagi qat'iyatliligi ta'riflansa, ikkinchi tarafdin, ularning ishonchsizligi, xalq ehtiyojlariga befarqligi va ma'muriy apparatining bosqinchi xarakteri tanqid qilinadi.

Uchinchiidan, Hind milliy kongressidagi ixtiloflar va maqsadlar mahalliy rus matbuotida ko'proq tahliliy ruhda berilgan. Maqolalarda Kongressdagi "umumiy huquqlar" uchun kurashuvchi islohotchi qanot bilan radikal mustaqillik tarafdorlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar qayd etilgan. Bunday yondashuv hind siyosiy harakatidagi ichki murakkabliklarni tushunishga xizmat qilgan.

To'rtinchiidan, terrorchilik harakatlari va harbiy xavfsizlik muammolari keng yoritilgan. Gazeta materiallarida hind faollari tomonidan amalga oshirilgan terror harakatlari tahlil etiladi, biroq bu harakatlarning kelib chiqishi, siyosiy sabablari va Britaniya zo'ravon siyosatining ta'siri ham qayd qilinadi. Shu bilan birga, hududiy xavfsizlik, harbiy ekspeditsiyalar va Britaniya armiyasining harakatlari haqida mufassal axborotlar keltirilgan.

Beshinchiidan, Yevropa matbuoti va tashqi ta'sirlar, xususan Yaponiyaning rolini

⁹ Туземные племена на пределах влияния России и Англии в Азии. – Т.С. 383. – С.3-18.

baholash masalasi ham alohida o‘rin egallagan. “Times” kabi yevropalik nashrlarda Britaniya siyosatiga bo‘lgan ishonchsizlik, mustamlakachilik siyosatining halokatli oqibatlari haqidagi yozuvlar mahalliy rus matbuotida yoritilib, ular orqali xalqona, tanqidiy va real yondashuv namoyon etilgan.

Oxir-oqibat, Angliya-Rossiya munosabatlari va “Buyuk Hind yo‘li” masalasi atrofidagi tahlillarda strategik raqobat, harbiy-siyosiy intilishlar va diplomatik muvozanatlar muhim o‘rin egallagan. Rossiya nashrlari orqali ko‘proq geosiyosiy mulohazalar, tashqi siyosatga oid taxminlar hamda ekspeditsiya va harbiy tayyorgarlik haqidagi ma’lumotlar beriladi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘rib chiqilgan maqolalar Hindistondagi Britaniya hukmronligiga doir murakkab va ko‘pqirrali voqelikni aks ettiradi. Ularda axborot berilishiga siyosiy tahlil, geosiyosiy mulohaza va gumanistik hamdardlik birgalikda yo‘naltirilgan. Mahalliy rus matbuoti nafaqat axborot tarqatish, balki mustamlakachilikka qarshi fikrlar uyg‘otishda ham muhim platforma bo‘lib xizmat qilgan.

<i>Soʻz boshi</i>	3
<i>Sayfullayev D.B.</i> - Oʻzgaruvchan global kontekstda Yaqin Sharq mintaqasi: soʻnggi yuz yillikning eng muhim hodisalari	5
<i>Ш.С.Камолiddин.</i> - Из истории Китайско-Арабских дипломатический связей в эпоху Тан	14
<i>А.Ходжаев.</i> - К этимологии топонима “Давань” в китайских источниках	27
<i>Хайдаров А.А</i> – Центральноазиатский вектор индийской дипломатии на современном этапе.....	35
<i>Dr. Nirmala Joshi.</i> - Impact of Afghanistan on Central Asian security.....	43
<i>Дониёров А.Х.</i> - Корея Республикасида Марказий Осиё маданияти тарихига оид тадқиқотлар	48
<i>Нуриддинов Э.З., Косимходжаев И.Э.</i> - Узбекско-китайские отношения на современном этапе с многовековым багажом взаимопонимания и сотрудничества.....	52
<i>Ҳасанов А.А</i> - Мустақиллик арафаси ва унинг дастлабки даврларида Ўзбекистондаги диний вазият таҳлили	59
<i>Арипова З.Дж.</i> - XIII-XV асрларда Мисрдаги ҳарбий мактаблардаги таълим.....	64
<i>Yuldasheva G.I.</i> - Economic Diplomacy of the Islamic Republic of Iran under sanctions before the pandemic boom	70
<i>Азимов К.С.</i> Причины формирования шиитских милиций в арабских странах Ближнего Востока	89
<i>А.Х. Худайбердиев</i> - Саудовско-йеменские отношения в XX- начале XXI вв.....	98
<i>Турсунова С.М.</i> Бирлашган Араб Амирликларининг Марказий Осиё давлатлари билан муносабатлари: Ўзаро манфаатли ва тенгликка асосланган ҳамкорлик	104
<i>Икромов Ш.</i> - Марказий Осиёдаги геосиёсат араб давлатларидаги илмий ва эксперт доиралар талқинида	109
<i>Мухаммаджон Қ.</i> Карл Ясперснинг (1881-1969) «Тарихнинг мазмуни ва мақсади» асарида (1949) ва ҳозирги замон тарих фалсафасининг айрим жиҳатлари	119
<i>Абдуллаев У.О.</i> - Яқин Шарқдаги янги сиёсий ўзгаришлар. «мудофаа иттифоқи» нинг парчаланиши.....	125
<i>Шамсиева И.М.</i> Искусственный интеллект – новая нефть Опыт цифровой трансформации ОАЭ	147
<i>Qodirov Z. M.</i> - Nizomiya madrasalarining tashkil topish sabablari	154
<i>Петророва О.Н.</i> - Исторический анализ взаимоотношений	

Турции и Сирии: начало XX- XXI вв.	162
Sulaymonov J.B. - Abu Zayd Abdurahmon ibn Xaldunning ma'naviy merosi haqida ba'zi mulohazalar	177
Ҳабибова М., Саидазизова Ф. - Умар Хайёмнинг “Наврўзнома асари” қадимги эрон маданиятига оид манбаа сифатида	183
Ёдгоров Ш.М. - Хусни Муборак даврида Мисрнинг диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг оқибатлари	189
Хайдарова Дж.Х. - Интересы Индии в Центральной Азии	198
Нурсаидова М. - Франциядаги қаршилик кўрсатиш ҳаракатида ўзбекистонликлар жасорати	209
Nazarqulova N.B. - Xristian dinining Choson qirolligi so`nggi davri ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o`rni	214
Абдунасинова А.Б. - Тарихий манбаларда Амир Темур ва Темурийлар хомийлик фаолиятини еритилишига доир	222
Ikramova I.R. - Said Muhammad Xotamiy “Tamaddunlar muloqoti” konsepsiyasining Eron ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ahamiyati	231
Рахмонов А. А. - Марказий Осиё халқлари ҳаётида Абу Юсуфнинг “Китоб ул-харож” асарининг аҳамияти	238
Ражабов Х.Ч. - XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида Марказий Осиёдаги маърифатпарварларнинг сиёсий қарашлари ва ўша давр ташқи сиёсат тарихи юзасидан турли назарий ёндашувлар	245
Khodiyeva N. - Boburiylarning Hindiston ravnaqiga qo‘shgan hissasi.....	262
Бекмуратов С. Т. - Жамол ал-Қарший Ўш шаҳри ҳақида	268
Низомиддинхужаев О. - Развитие гражданского общества в республике Узбекистан: состояние и перспективы	275
Fayzullayev A. H. - Afg‘oniston va Turkiya hamkorlik aloqalarining zamonaviy bosqichdagi holati	290
Xudoyberdiyev I. - 2001-2014 yillarda Pokiston-Afg‘oniston munosabatlari.....	300
Рисқулов Ш.Н. - Амир Дўст Муҳаммаднинг Афғонистонда олиб борган ислохатлари	315
Сайфуллаев Б. Д. - Ўзбекистон ва Ҳиндистон ўртасидаги ўзаро дипломатик муносабатларнинг янги тенденциялари	320
Sulaymonova Sh. N. - Ibn Miskavayhning “Tahzib ul-axloq va tathir ul–a’roq” asarida axloqiy masalalar muhokamasi	326
Taylaqov T. A. - Arab bahori voqealarining “Al-Jazira” telekanalida yoritilishi.....	332
Маматқулов С. Х. – Ҳозирги босқичда Покистон ташқи сиёсатининг устувор йўналишлари	338
Холбоев О. - Первый этап установления отношений между	

Израилем и государствами Центральной Азии в политической и культурно-гуманитарной сфере.....	343
<i>Абдиев О.С.</i> Нефть в политике стран востока во второй половине XX века.	357
<i>Маматкулов С. Х.</i> – Покистоннинг араб-мусулмон дунёсидаги ташқи сиёсатининг асосий жиҳатлари.....	363
<i>Abdurazzoqova Yu.A.</i> - Rejep Tayyip Erdog‘Anning siyosiy lider sifatida shakllanishiga ta’sir qilgan omillar.....	368
<i>Soliyeva M.S.</i> - 1945-1990 yillarda Turkiya-Isroil munosabatlari.....	380
<i>Egamberdiyev A.A.</i> - Hindistonda Buyuk Britaniya mustamlakachilik siyosatining Davriy nashrlarda yoritilishi.....	390
<i>Taylaqov T.A.</i> - “Arab bahori” voqealari sabablari.....	394

“Шарқ мамлакатларидаги тарихий жараёнлар ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари” мавзусида вазирлик миқёсида илмий-амалий конференция. – Тошкент. 2022. № 8. 370 б.

Тўплам Тошкент давлат шарқшунослик университети Шарқ цивилизацияси ва тарих факультети Кенгаши томонидан нашрга тавсия этилган (22.06.2022 й. № 11)

Bosishga ruxsat etildi: 12.10.2022
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 20,75 b.t.
100 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy.

Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2022